

RETSIDIV JINOYAT UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Babamuradov Dilshod Abdurashidovich

Sirdaryo viloyat prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i adliya maslahatchisi

Annotatsiya: Residiv jinoyatlar sodir etgan shaxslarning javobgarligi bilan bog‘liq eng murakkab va munozarali muammolar, xususan, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning jinoiy javobgarligi bo‘yicha bir qator olimlarning nazariy qarashlari, sohaga oid qonunchilik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: retsdiv, jinoyat, jazo tizimi, javobgarlik, g‘ayriijtimoiy fazilatlar, ijtimoiy xavflilik, kvalifikatsiya va boshqalar.

Davlat va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad - yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy topishi, jamiyatda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, aholi farovonligini yuksaltirish hamda kuchli huquqiy demokratik davlat qurishdir.

Har qanday davlatda xavfsizlik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalagan holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1].

Shuni ta’kidlash joizki, mamlakat va uning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, birinchi navbatda, huquqbarliklarning, jumladan, jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yangi ming yillikning boshlanishi sharoitida ko‘plab jinoiy-huquqiy institutlar va alohida tushunchalar qayta ko‘rib chiqilmoqda, jinoyat qonunchiligi sezilarli darajada o‘zgarmoqda, xususan, retsdiv jinoyatning qonunchilikdagi ta’rifi o‘zgarmoqda.

Retsdiv jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi bilan bog‘liq eng murakkab va munozarali muammolardan biri – bu ularning jinoiy javobgarligi asoslari masalasidir. Bunga javob berish uchun, birinchidan, jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikning umumiylashtirishiga uchun asoslarni aniqlash, ikkinchidan, bir nechta jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirishga uchun asoslarni aniqlash kerak.

Agar retsdivistlar jinoiy javobgarligining umumiylashtirishiga qarab qolishga qarab bo‘lsak, unda, fikrimizcha, retsdivistlar va bir yoki hatto bir nechta jinoyat sodir etgan shaxslar o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmashligi kerak. Shu munosabat bilan professor M.X.Rustambayev: “Tushuncha subyekt sifatida retsdivistda emas, balki hodisa sifatida

retsidiv jinoyatlarga asoslanadi, bu fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyiliga mos keladi (5-modda)” deb hisoblaydi[2]. Zotan, odillik tamoyiliga ko‘ra “Hech kim bir jinoyat uchun ikki marta jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas” (JKning 8-moddasi 2-qismi) va bunday javobgarlik uchun asos bo‘lib, javobgarlik muqarrarligi tamoyili ya’ni “qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart” (JKning 10-moddasi) xizmat qiladi.

Nisbatan ko‘proq munozarali masala – bu retsdiv jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni oshirish uchun asoslari nimalardan iboratligidir. Bu borada mutaxassislar bugungi kungacha bir to‘xtamga kelmagan. Jumladan, P.F.Grishaninning fikricha, agar mahkum tuzalmasa, yana jinoyat sodir etish niyatida bo‘lsa, unda shaxsni bundan faqat sudlanishdan oldin tahdid qilgan jazodan qattiqroq jazo tahdidi qaytarishi mumkin. Jinoyat qonunchiligidida retsdivistlar jinoiy javobgarligini kuchaytirish orqali uning samaradorligini oshirish mumkin[3]. Muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha xuddi shunday nuqtai nazarni V.D. Filimonov ham ilgari suradi[4]. N.S. Tagansev ushbu masala bo‘yicha retsdivistning jinoiy javobgarligini oshirishning asosi – uning yangi jinoyat sodir etishga qaratilgan "barqaror yovuz irodasi" mavjudligi, deydi[5].

Sudlanganlik – bu shaxs allaqachon sudlangan va, qoida tariqasida, jazoni o‘tagan (ko‘pchilik yangi jinoyatlar jazoni o‘tagan yoki jazodan ozod qilinganidan keyin sodir etiladi) oldingi jinoyati "izi"dir. Ko‘rinib turibdiki, mazkur normalarga nisbatan odillik prinsipi (JKning 8-moddasi 2-qismi) buziladi, vaholanki adolatli jazo tayinlash uchun aybdorning shaxsini hisobga olish nuqtai nazaridan JKning 8-moddasi 1-qismi talabi bajariladi.

Mahkumning, xususan, retsdivist shaxsining ijtimoiy xavfliligi yuqoriligi faqat ushbu shaxs tomonidan jinoyat tarkibining barcha belgilarini o‘z ichiga olgan qilmish sodir etganligi munosabati bilan jinoiy-huquqiy jihatdan baholanadi va faqat ushbu jinoyatni sodir etganlik uchun JK Maxsus qismi moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan jazo turi va miqdoriga ta’sir qilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi JKning 56-moddasi 1-qismiga muvofiq retsdiv jazoni og‘irlashtiruvchi holat bo‘lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmasligi kerak[6].

Shu munosabat bilan ta’kidlash kerakki, turli davrlarda ushbu muammoga murojaat etgan huquqshunos olimlar, retsdivistlarning shaxsiga xos bo‘lgan yuqori ijtimoiy xavflilik sababli retsdivistlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish yuzasidan turli dalillarni keltiradilar. Xususan, S.P.Buzinova jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligin "shaxsning sodir etilgan jinoyatda namoyon bo‘lgan g‘ayriijtimoiy yo‘nalishi" deb ta’riflagan. U jinoyat sodir etilgan vaqtida jinoyatchi shaxsining asosiy belgilovchi alomati bo‘lib, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi hamda shaxsning uning oldingi xulq-atvori, jinoyat sodir etilishidan oldingi harakatlarida namoyon bo‘ladigan g‘ayriijtimoiy xususiyatlari va fazilatlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi[7].

A.B.Saxarov va V.D.Filimonov jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligi "shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi mumkinligi barqaror havfida" namoyon bo‘ladi deb hisoblaydilar[8]. B.V.Voljenkin shaxsning ijtimoiy xavfliligin "g‘ayriijtimoiy fazilatlari" mavjudligi bilan bog‘laydi[9].

Shaxsning g‘ayriijtimoiy yo‘nalishiga eng batafsil ta’rifi P.S.Dagel tomonidan berilib, quyidagicha belgilanadi: "Insonning g‘ayriijtimoiy yo‘nalishi ostida uning ongida

g‘ayriijtimoiy qarashlar, tamoyillar va odatlar mavjudligini va ularga muvofiq harakat qilishga tayyorligini tushunish kerak"[10]. Harakat qilishga tayyorlik, bizning fikrimizcha, birinchi o‘rinni egallashi kerak, chunki g‘ayriijtimoiy yo‘nalishning negizi aynan unda namoyondir, garchi u (harakat qilishga tayyorlik) o‘z-o‘zidan ijtimoiy xavfli deb topilmaydigan qarashlar, tamoyillar, odatlar hosilasi bo‘lsa ham.

Bizni har qanday harakatga tayyorlik emas, balki ijtimoiy xavfni o‘rganish nuqtai nazaridan, faqat jamiyat uchun zararli bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarga tayyorlik qiziqtiradi.

Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va jinoyatchining shaxsi muammosiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarda "jinoyat xavfi va jinoyatchi shaxsi xavfi o‘rtasidagi bog‘liqlik ..." inkor etilmaydi, shu bilan birga, "jinoyatchi shaxsining xavfliligi" tushunchasi mavjudligi shubha ostiga olinadi[11]. Shaxsning ijtimoiy xavfliligi o‘zining haqiqiy ifodasini muayyan xattiharakatlarda topadi: ichkilikbozlik, giyohvandlik, intizomiy yoki ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etish, o‘tmishda jinoyat sodir etish va boshqalar[12].

Agar shaxsning ijtimoiy xavfliligi jinoyat sodir etishda o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, jinoyatchi shaxsi paydo bo‘ladi. Jinoyat sodir etishda "shaxs" va "jinoyatchi shaxsiyati" tushunchalari farqlanadigan yagona mezon. Shu sababli, "jinoyatchi shaxsi" tushunchasi ma’lum darajada shartli, ammo u umumiyl xususiyatga ega bo‘lgan ma’lum insonlar guruhini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Jinoyat sodir etgandan so‘ng shaxs o‘zgarmaydi. U faqat uni tavsiflovchi qo‘sishimcha belgini oladi, ya’ni jinoyat sodir etadi.

Kriminologiya darsliklari mualliflarining fikrlari, ko‘rib chiqilayotgan muammoni tartibga soluvchi normalar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, sodir etilgan jinoyatning mohiyatini, uni sodir etgan inson shaxsini tahlil qilmasdan ochib bo‘lmaydi. Jinoiy jazoning maqsadi va huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan vazifalar ham shaxsning holatini o‘rganishdan iborat bo‘lib, shundagina shaxsda yangi jinoyat sodir etishga tayyorlik kamayadi, ideal holatda esa – mutlaqo istisno qilinadi.

Retsidivist shaxsining ijtimoiy xavfliligi mezonini ko‘rib chiqishda, u yoki bu shaxs sudlangan barcha jinoyatlarning faktik jihatlarini hisobga olish kerak. Muhibi, ular qasddan sodir etilgan va ular uchun sudlanganlik o‘tmagan yoki olib tashlanmagan bo‘lishi shart. Bu uning shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy xavflilagini baholash imkonini beradi, bu esa jinoyatchi shaxsiga sud tomonidan baho berishni aniqlashtiradi. Sudlanganlik soni, aybdor tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlarning soni, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi retsidiivist shaxsi ijtimoiy xavfliligining eng muhim ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qiladi[13].

Past motivlar (rashk, qasd, oldindan o‘ylangan tusdagি qasd, yovuzlik, takroran jinoyat sodir etishda namoyon bo‘ladigan jinoyatchi shaxsi ashaddiyligi va hokazo) jinoyatlar xavfini sezilarli darajada oshiradi va retsidiivist shaxsini o‘ta salbiy tavsiflaydi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatni retsidiiv deb topish masalasi qat’iy individual tarzda hal qilinishi kerak. Bunda bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda ishtirok etish darajasi va xususiyatini baholash alohida ahamiyatga ega[14]. Shuni ham yodda tutish kerakki, shaxsning ijtimoiy xavfliligi turli darajada bo‘lishi mumkin, ya’ni “ba’zi odamlarda g‘ayriijtimoiy qarashlar va yo‘nalishlar chuqurroq, kuchliroq, barqarorroq bo‘lib

chiqadi, boshqalarda – zaifroq, yuzakiroq. Va bu, albatta, insonning xulq-atvorini belgilaydi” [15].

Yuqorida keltirilganlarda ba’zi xulosalarни chiqaramiz. V.D. Filimonov tomonidan taklif qilingan konsepsiya to‘g‘riroq ko‘rinadi, ya’ni qilmishning ijtimoiy xavfi va shaxsning ijtimoiy xavfliligi alohida-alohida mavjud, ammo shaxsning ijtimoiy xavfi va qilmishning ijtimoiy xavfliligi o‘rtasida to‘liq ajralish haqida gapirishga asos yo‘q[16].

Bu ikki jihat qarama-qarshiliklar birligi va kurashining dialektik tamoyiliga bo‘ysunadi, ular bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi va o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi va shaxsning ijtimoiy xavfliligi bir-biriga shu qadar uzviy bog‘langanki, ularni buzish, masalan, JKning Umumiy va Maxsus qismlarini ajratish kabi bema’nilikdek tuyuladi.

Birinchi marta sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat bilan bir xil jinoyatni sodir etganlik uchun shaxsiyati ijtimoiy xavfliligi yuqoriroqligi bois retsidiivistlarga jinoi javobgarlikni, va oxir-oqibat, jazoni oshirish adolatdanmi yoki yo‘qmi degan savolni berish kerak.

Bizningcha, birinchi marta sudlangan va retsidiivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning og‘irligi bir xil bo‘lsa, ikkinchisi og‘irroq jinoi javobgarlikka tortilishi kerak. Agar ilgari sudlangan shaxs tuzalmagan bo‘lsa, yana jinoyat sodir etish niyatida bo‘lsa, unda birinchi marta sudlangan shaxsga tahdid soladigan jazodan og‘irroq jazo tahdidigina uni bunday harakatdan to‘xtata oladi.

Retsidiivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlar takroriyligini ko‘rib chiqar ekan, professor M.X.Rustambaev haqli ravishda shunday deb hisoblaydi: “Sudlangandan keyin takroran qasddan jinoyat sodir etish, shaxsga ko‘rsatilgan profilaktik va tarbiyaviy ta’sirga qaramay, tuzalish yo‘liga o‘tmaganligidan dalolat beradi. Binobarin, bunday jinoyat jamiyat va davlat tomonidan qattiqroq munosabatda bo‘lishni, retsidiivistlarga nisbatan qo‘srimcha jinoi javobgarlik va jazo choralarini qo‘llash zaruratini keltirib chiqaradi” [2].

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, retsidiivistning yuqoriroq jinoi javobgarligi huquqiy asoslari JKning tegishli normalari bo‘lib, ular retsidiiv jinoyatlarni og‘irlashtiruvchi kvalifikatsiyalovchi holat sifatida ko‘rishga, shuningdek, aybdorlarga nisbatan yanada og‘irroq jazo turlarini belgilashga imkon beradi.

Ehtimoliy retsidiiv jinoyatlarning oldini olish uchun jinoyat qonunida retsidiivistlarning yuqoriroq jinoi javobgarligi to‘g‘risidagi aniq qoidalar bo‘lishi kerak. Bunday qonun hujjalaringin huquqiy targ‘iboti sudlangan, lekin tuzalmaganlarning juda bo‘lmasa bir qismini retsidiiv jinoyatdan ushlab qolishi mumkin. Ayni chog‘da, sud retsidiivistga nafaqat maxsus, oshirilgan jazo miqdorini, qoida tariqasida, ozodlikdan mahrum qilishni belgilashi, balki JKning 50-moddasi qoidalarini hisobga olgan holda, jazoni ijro etish muassasalarida saqlashning qattiqroq rejimini tayinlashi shart.

Demak, ilgari qonunga xilof qilmishi uchun sudlangan shaxs tomonidan takroran jinoyat sodir etish, alohida kriminologik va ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, aynan shu jamiyat va davlat uchun yuqoriroq xavf olib kelayotganligi va insonning qonun bo‘yicha yashashni, axloqiy va boshqa xulq-atvor normalariga rioya qilishni istamasligi bilan

izoxlanadi. Aynan mana shu holat qonunchilikda jinoyatlar takroriyiligi barcha turlari ichidan retsidivni tanlab olishni asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.
2. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть. – С. 305-306.
3. Гришанин П.Ф. Общественная опасность личности отдельных категорий преступников. – М.: Академия управления МВД, 1983. – С. 37.
4. Филимонов В.Д. Общественная опасность личности отдельных категорий преступников. – Томск: СГУ, 1973. – С. 42.
5. Таганцев Н.С. О повторении преступлений. – СПб., 1867. – С. 32.
6. Бундай ёндашув Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 19.07.1996 йилдаги 16-сон қарорида ҳам илгарироқ мустаҳкамланган эди // <https://lex.uz/docs/2633138>.
7. Бузынова С.П. Множественность преступлений. - М.: Юридическая литература, 1989. – С. 28.
8. Сахаров А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. – М.: Юридическая литература, 1961. – С. 169; Филимонов В.Д. Общественная опасность личности преступника. Томск: СГУ, 1970. – С. 34.
9. Волженкин Б.В. Общественная опасность личности как криминологическая и уголовно-правовая категория. Теоретические проблемы учения о личности преступника. – М.: Юридическая литература, 1979. – С. 74.
10. Дагель П.С. Учение о личности преступника в советском уголовном праве. – Владивосток: ДВГУ, 1970. – С. 28.
11. Яковлев А.М. О понятии «опасность личности преступника» // Проблемы совершенствования уголовного законодательства. – М.: МВШ МВД, 1984. – С. 56; Гришанин П.Ф. Ответственность преступников-рецидивистов по советскому уголовному праву: Учебное пособие. – М: МВШ МВД, 1974. – С. 16.
12. Ўразалиев М.Қ. Историческое развитие алкоголизма и наркомании как один из факторов преступности //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – Москва, 2015. – С.179-182.
13. Мирзаев А. Жазонинг муқаррарлиги //Тафакур. – Тошкент, 2002. - №4. – С. 81-82.
14. Рустамбаев А.М. Вопросы соучастия при групповом сексуальном насилии //Магистратларнинг илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2004. – № 7. – С. 143-152.
15. Сахаров А.Б. Кўрсат. асарда. – С. 162.
16. Филимонов В.Д. Кўрсат. асарда. – С. 44.